

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha

Ma'rifat darsi-17

BAYONNOMASI


22.12.25 yil

Toshkent sh.


Qatnashganlar: Kafedra hodimlari va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari

Kun tartibi: «Men – o'zbekistonlikman» mavzusida Kelajak soati o'tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.



Bugun muhokama qilinadigan mavzu nafaqat akademik ahamiyatga ega, balki shaxsiy va milliy ongimiz bilan chambarchas bog'liqdir. Bu mavzu orqali biz o'zimizning identifikatsiyamizni, tarixiy ildizlarimizni va shaxsiy orzu-umidlarimizni chuqurroq anglash imkoniga ega bo'lamiz. Har bir insonning hayotiy shiori bo'lishi lozim bo'lgan so'z – “Men – o'zbekistonlikman!”.



“Men – o'zbekistonlikman” degan ibora shunchaki so'z emas; bu – mas'uliyat, burch va milliy g'ururdir. Agar bu so'z qalbimizda chuqur his etilsa, biz Vatanimizga sodiq qolamiz,

qadriyatlarimizni asraymiz va kelajakdagi hayotimizda jamiyatimiz va xalqimiz sha'nini yuksaltirishga intilamiz. Bugungi dars davomida Vatan, milliy g'urur, fuqarolik burchi va qadriyatlar masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, mashhur vatandoshlarimizning hayotiy faoliyatidan o'rnak olib, ularning qoldirgan merosi o'rganildi.

O'zbekistonlik bo'lishning imtiyozi mas'uliyatidan ko'proq. Biz tinch-barqaror, iqtisodiy rivojlanayotgan o'lkada yashayapmiz. Prezidentimiz va davlatimiz uchun yoshlar masalasi hamisha eng oldingi o'rinlarda turadi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali har yili yuzlab yoshlarga jahonning yetakchi universitetlarida ta'lim olishlari uchun mablag'lar ajratilmoqda.

Yurtimiz nomini va obro'yini dunyoga yoyayotgan, o'zbekistonliklarni ilmli, ziyoli, intiluvchan va muvaffaqiyatli insonlar sifatida tanitayotgan hamyurtlarimiz ko'p.

O'zbekiston bizning yagona Vatanimizdir. Shu yurtning ajdodlari asrlar davomida o'z davlatini barpo etgan, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarida bebaho kashfiyotlar yaratgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarimiz jahon tamaddunining durdonalari sifatida tan olingan. Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarimiz esa ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Ularning merosi bugun ham bizga kuch-quvvat, g'urur va ilhom bag'ishlaydi.

"Men – o'zbekistonlikman" degan iboralar bizdan nafaqat milliy faxrni, balki mas'uliyatni ham talab qiladi. Vatan oldidagi burchimiz – halol mehnat qilish, bilim egallash, yurtimiz obro'yini yuksaltirish va qadriyatlarimizni asrab-avaylashdir.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.



Shamansurova E.A.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari

bo'yicha mas'ul, ass.:



Shayxova M.I.